

XALQARO BAHOLASH DASTURLARI ASOSIDA INTEGRATSIYALASHTIRILGAN TA'LIMNI TASHKIL ETISH MASALALARI

Ruzmatova Mastura Berkinovna

Boyovut tumani, Bekat mahallasi

6-umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11521509>

Annotatsiya. Rivojlanayotgan texnika asrida o'quvchilarimizni yoshligidan ta'lim va fanning hozirgi zamon talablariga mos ravishda tarbiyalash mamlakatning rivojlanishi va o'sishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ayniqsa, iqtisodiy- ijtimoiy rivojlangan mamlakatlar o'quvchi-yoshlarning ta'lim olishiga yetarli darajada e'tibor qaratib, kelajak avlodni yetuk bo'lishi uchun imkoniyatlar yaratib berishga harakat qilinadi hamda Davlat ta'lim standartlari va Davlat tomonidan qo'yilgan talablarning bajarilishi doimiy ravishda tahlil qilib borilishining ahamiyati katta hisoblanadi. Ushbu maqolada xalqaro baholash dasturlari asosida integratsiyalashgan ta'limni tashkil etish masalalari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: jahon ta'limi, integratsiya, PIRLS xalqaro baholash dasturi, xalqaro baholash dasturlari, kompetensiya, sinov topshiriqlar, ta'lim sifati.

ISSUES OF ORGANIZING INTEGRATED EDUCATION ON THE BASIS OF INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS

Abstract. In the age of developing technology, educating our students from a young age in accordance with the modern requirements of education and science has an impact on the development and growth of the country. In particular, economically and socially developed countries pay enough attention to the education of students and young people, and try to create opportunities for the next generation to mature, and the implementation of state education standards and requirements set by the state is continuous. It is important to analyze it. This article discusses the issues of organizing integrated education based on international assessment programs.

Keywords: global education, integration, PIRLS international assessment program, international assessment programs, competence, test tasks, quality of education.

ВОПРОСЫ ОРГАНИЗАЦИИ ИНТЕГРИРОВАННОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ ПРОГРАММ МЕЖДУНАРОДНОЙ ОЦЕНКИ

Аннотация. В век развития технологий воспитание наших школьников с юных лет в соответствии с современными требованиями образования и науки оказывает влияние на развитие и рост страны. В частности, экономически и социально развитые страны уделяют достаточно внимания образованию студентов и молодежи, стараются создать возможности для взросления подрастающего поколения, а реализация государственных образовательных стандартов и требований, установленных государством, идет непрерывно. важно его проанализировать. В данной статье рассматриваются вопросы организации интегрированного образования на основе международных программ оценивания.

Ключевые слова: глобальное образование, интеграция, международная программа оценивания PIRLS, международные программы оценивания, компетентность, тестовые задания, качество образования.

KIRISH

Hozirgi rivojlanayotgan zamonda davlatlarda ta'lim sohasidagi o'zgarish va o'sishlarni tahlil qilish va solishtirish hamda ta'limda integratsiyalashuvni amalga oshirish davlatlararo ta'limdagi islohotlarni yaratishga imkoniyatlarni kengaytiradi.

Ushbu dolzarblikni inobatga olgan holda O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvda xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning ahamiyati o'ziga xos bo'lib, bunda asosiy e'tibor Milliy dasturdan kelib chiqqan holda jahon standartlari darajasiga tenglashish muammosiga urg'u berilganligidir.

O'zbekiston ta'limi sifatini oshirish va jahon ta'limi bilan integratsiyalashgan holda Xalqaro baholash dasturlarini o'quv jarayonida qo'llash davlat siyosati darajasidagi muhim muammo hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Integratsiya (lot. integratio — tiklash, to'ldirish, integer — butun) fanlarning yaqinlashishi va o'zaro aloqa jarayoni, ikki va undan ortiq davlatlarning yo'nalishlar bo'yicha tegishli muammolarni sifatli yanatijadorligini ta'minlagan holda hal qilishda o'zaro muvofiqlashtirish va birlashtirish degan ma'noni bildiradi.

Xalqaro baholash tizimiga o'tishning ayni vaqtdadolzarbli va vaharsohadarivojlanayotgan O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimining o'sishiga ta'sirini kuchaytirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kiritilgan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlashtirish to'g'risida"gi 140-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora- tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5712- son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi "Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4306-son Qarorlari tasdiqlanib, ijroga yo'naltirilgan [1-4].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Bilamizki, butun jahonda eng mashhur xalqaro ta'lim tadqiqotlarining asosi o'qish savodxonligi bo'lib, boshlang'ich ta'lim bitiruvchilarining jahon standartlariga mosligini aniqlash, PIRLS xalqaro monitoringida aynan o'qish savodxonligi kichik yoshdan o'quvchilarning o'zlashtirganlik darajasini baholab boradi.

Ya'ni, biz milliy ta'lim tizimimizda 4-sinf o'quvchilarining ona tili va o'qish savodxonligi

BKMLarini o'zlashtirish darajasini aniqlashda diktant yoki o'quv dasturi taqvim-mavzu rejasi asosida DTSlarni shakllantirib, shuasosda 20 ta ochiq va yopiq test topshiriqlari berilar edi.

Xalqaro tadqiqotlar monitoringiga tayyorlash buyicha tajriba-sinovlar boshlangandan so'ng, boshlang'ich sinflarda PIRLS monitoringi jarayoniningoldingi sikllarida foydalanilgan materiallardan ishlatila boshlandi.

Adabiy va axborot matnlarida to'liq material taqdim etilib, so'ngra qiyinlik darajasiga qarab topshiriqlar berib boriladi, jarayonda berilgan materiallarni o'quvchi nafaqat yuzaki o'qishi, balki, uni o'qib, mushohadali (kreativ) fikrlashi zarurligi talab etiladi.

Bunda o'qituvchi mahoratidan kelib chiqib, o'quvchiga aynan matndagi obrazlar o'rniga o'zini qo'yib ko'rishi, hayotda bunga o'xshash voqealar qaerlarda sodir bo'lishi mumkinligini faraz qilishi, shunday vaziyatda nimaqilish zarurligi va hattoki, asar muallifi o'rnida bo'lganda asarni qanday nomlashi yoki matnni qanday tugatishi mumkinligi bo'yicha xulosa chiqarishga undaydigan turli topshiriqlar beriladi.

Topshiriqlar murakkablik darajasiga ko'ra:

1-darajadagi - esda saqlash va takrorlay olish;

2-darajadagi - g'oya va ko'nikmalarni bildirishga undaydigan;

3-darajali - strategik fikrlash;

4-darajadagi - kengaytirilgan fikrlashga undaydigan topshiriqlarga ajratiladi. Topshiriqlar biz ishlatgan ochiq yoki yopiq testlar (4 ta javobli)qolipidan chiqariladi.

Bunday turdagi topshiriqlar avval xorijiy tajriba namunalaridanto'g'ridan-to'g'ri tarjima qilingan holda olinib, o'quvchi savodxonligini baholash uchun o'qituvchilar tomonidan qo'llanildi.

Bugungi kunda xalqaro tajribalarni Milliy dastur bilan integratsiyalashtirib, o'quvchi savodxonligini aniqlash va baholashga oid o'zimizning topshiriqlar tizimini yaratish bo'yicha ilmiy-metodik izlanishlar olib borilmoqda.

Ilg'or tajribalarga asoslangan holda mahoratli o'qituvchilar tomonidan zamonaviy tavsiyalar ishlab chiilmoqda va ta'lim jarayonlarida foydalanish uchun amaliyotga tadbiiq etilmoqda.

Biz boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini oshirish,uning darajasini aniqlash va baholashga doir muammolarni yechish maqsadida o'z tadqiqot ishimiz va ilmiy izlanishlarimiz natijasida quyidagi vazifalarni amalga oshirishga harakat qildik:

Ta'lim jarayonida RIRLS xalqaro baholash dasturi topshiriqlariga o'xshash o'quv va sinov topshiriqlarini tayyorlash orqali o'quvchilarning fanga oid va tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish.



1-shakl. RIRLS xalqaro baholash dasturi asosida o'quvchilarning o'qib tushunish kompetensiyalarini shakllantirish modeli [6]

TAHLIL VA NATIJALAR

Doimiy ravishda boshlang'ich ta'lim o'qish savodxonligining jahon standartlari talablariga mosravishda integratsiyalashuvi islohotlari sababli PIRLS tadqiqotlarining keyingi 3 ta siklida Rossiya davlati yetakchilikni qo'ldan boy bermayapti. Shu bilan birga PISA, TIMSS, ICLIS va birqancha xalqaro tadqiqotlarda ham boshlang'ich sinflardan o'qish savodxonligi jahon standartlariga integratsiyalashuvi islohotlari o'z natijasini ko'rsatib borayapti [5].

O'qituvchilarning dars berish metodlarini xorijiy tajribalar bilan integratsiyalash jarayonini tahlil etish va yangi metodikalar ishlab chiqish:

PIRLS xalqaro monitoringi natijalari asosida boshlang'ich sinf o'qituvchilarining milliy ta'lim metodlarini butun dunyo o'qish savodxonligidan dars beruvchi pedagog xodimlarining ta'lim uslublari bilan solishtirish imkonini yaratib, ijobiy va salbiy tomonlaridan kelib chiqib milliy metodlar va jahon metodlari o'zaro bir-birini to'ldirib boradi.

Masalan, matnni o'qishda matndagi har bir so'zning ahamiyati borligini tushuntirish uchun ona tili va o'qish savodxonligi mashg'ulotlarida milliy adabiyot hamda jahon adabiyoti namunalaridan keltirilgan mavzularda ushbu metodlardan milliy modul sifatida keng qo'llanilyapti.

XULOSA VA MUNOZARA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, O'zbekiston ta'limining jahon ta'limi bilan integratsiyalashuvida xalqaro baholash dasturlarini qo'llashning nazariy va amaliy asoslari tayangan holda boshlang'ich sinf bitiruvchilari orasida o'tkazilayotgan Xalqaro baholash dasturlaridan biri Xalqaro Ta'lim Tadqiqoti Assosatsiyasi (IEA- International Association for the Evaluation of Educational Achievement) tomonidan o'tkaziladigan PIRLS xalqaro baholash dasturi qo'llash va samarali natijalar olish milliy mentalitetni hisobga olgan holda amaliy mexanizmlarini ishlab chiqilib, boshlang'ich sinf o'quvchilari tomonidan matnni o'qish va tushunishni, shuningdek, milliy ta'lim tizimidagi farqlar borasida tahliliy natijalarga asoslangan PIRLS dasturlari doirasida 8 nomdagi o'quvchi bilan ishlashga mo'ljallangan maqsadli mashqlar ishlab chiqildi va o'qituvchilarga tavsiya etildi.

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarinitasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi “Xalq ta’limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5538-sonli Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi “Xalq ta’limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3931-sonli Qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi “Xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 997-sonli Farmoni
5. Altinok N., Diebolt C., Demeulemeester JL, Ta'lim bo'yicha yangi xalqaro ma'lumotlar bazasi. Sifat: 1965-2018 , 2013, 14-noyabr.
6. Maftuna, G. (2021). Effective ways to Use Triz (The Theory of Inventive Problem Solving) in Elementary School. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 85-88.
7. Ganieva, M. (2023). EMPOWERING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TIPS TECHNOLOGY. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 12, pp. 62-63).
8. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODOLOGICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Modern Science and Research, 2(10), 91-94.